KUCH ADOLATDADIR Amir Temur

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN | HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA | ISSN 2181 - 483X www.andijonsadosi.uz | № 7 (537) 2025-YIL, 22-FEVRAL

«JADIDLAR ALISHER NAVOIY, ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINI MUKAMMAL O'RGANGAN"

Taraqqiyparvar bobolarimiz mumtoz adabiyot, ayniqsa Hazrat Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur asarlaridagi ezgu, ma'rifatli g'oyalarini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratgan. Bu jihatlar ularning ilmiy, badiiy asarlarida, millat kelajagi yo'lidagi xayrli amallarida o'zining yaqqol ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktorining o'rinbosari, tarix fanlari doktori, atoqli tarixchi olima, jadidchilik harakatining bilimdoni Dilnoza Jamolova bilan shu haqda suhbatlashdik.



- Ma'lumki, jadidchilik harakatining vakillari doim yangilikka, dunyo mamlakatlari, xususan, Yevropa davlatlaridagi eng ilg'or g'oyalarga asoslanib, faoliyat yuritgan. Vaholanki, jahon sivilizatsiyasi, jumladan, o'rta asrlardagi Yevropa Uyg'onish davriga aynan Sharq, xususan, bizning diyorimizdan yetishib chiqqan mutafakkir va allomalarning ilmiy merosi, asarlari, kashfiyotlari turtki bo'lgan. Bu haqda sizning fikringizni bilmoqchi edik.

- Turkiston jadidlari Yevropa davlatlaridagi eng ilg'or g'oyalarga asoslanib faoliyat yuritgan, degan fikrga mutlaqo qarshiman. Bugun ham ayrim olimlarimiz bolsheviklar singdirgan tafakkur va g'oyalarga suyanib, Turkiston jadidchiligi rus ma'rifatchiligidan o'sib chiqqan, degan fikrni ilgari suryapti. Birinchi va Ikkinchi uyg'onish davri mutafakkirlarining avlodlari bo'lmish jadid bobolarimiz - ota-bobolari yaratgan kitoblarni o'z tiliga o'girib, o'qib o'rgangan, shu tadqiqotlarga tayangan kishilarning g'oyalariga asoslangan deyish qanchalik to'g'ri.

Shu o'rinda Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Abdurauf Fitratning "Sharq siyosati" asarida urg'ulagan fikrlarini aytish asosli deb o'ylayman: "Bu kun oyoqlar taginda ezilgan Sharq bir kun madaniyatning yo'lboshchisi, bilim va hunarning o'chog'i edi. Ovro'pa dunyosi vahshat va bilmaslik cho'llarinda obdirab, shovqin toshqin yurar ekan, Sharq dunyosi butun insoniyat olamini saodat va tinchlik o'choqlarig'a erishdurmak uchun ish ko'rub turar edi". Jadidlarimizning bunga o'xshash fikrlari juda ko'p. Ularning taraqqiyparvar bo'lishida yevropaliklar emas, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy kabi buyuklarimizning qarashlari va g'oyalari turtki bo'lgan. Buni jadidlarning o'zlari ham bir necha bor e'tirof etgan. Turkistonda ilmning ulkan xazinasiga ega bo'lgan jadidlar, hech qachon uning bir qismidangina foydalanganlarga muhtoj bo'lmaydi.

- Jadid bobolarimizning Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari allomalarimizning asarlarini tadqiq etish borasidagi sa'y-harakatlari xususida ham fikr bildirsangiz.

- Turkiston jadidlari orasida shoir va yozuvchilik bilan shug'ullangan Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqalar Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur merosini mukammal o'rgangan, desam, mubolag'a bo'lmaydi. Bundan tashqari Abdurauf Fitrat va Vadud Mahmud davriy matbuotda Alisher Navoiy, uning hayoti va faoliyati, ijodi haqida maqolalarini e'lon qildilar. 20 yuz yillikning 20 yillarida davriy matbuotda Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Fuzuliy, Nodirabegim va boshqa mutafakkir, ulamo hamda shoirlar haqida o'nlab maqolalar e'lon qilindi.

1925 yili Vadud Mahmud "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalining 3-sonida "Alisher Navoiy" maqolasini yozgan. Bu maqolani 1926 yili Bokuda Navoiyning 500 yilligiga bag'ishlab o'tkaziladigan Turkiston qurultoyiga tayyorgarlik ko'rish vaqtida yozganini ta'kidlaydi. Maqolada mutafakkirning bolaligi, ta'limi, Samarqand madrasalaridagi tahsili, siyosiy faoliyati, she'riyati va tasavvufshunosligi haqida ma'lumot beradi. Alisher Navoiydan keyin ijod qilgan qaysiki shoir bo'lmasin, undan ilhomlanib yozganini asoslab beradi. Muqimiy, Furqat, Umarxon ijodida Navoiyning ta'sirini g'azallarini taqqoslash orqali ko'rsatib beradi. Navoiy ijodiga yuksak baho berib, uning hayoti va faoliyati haligacha chuqur tadqiq qilmaganligidan afsuslanadi.

Vadud Mahmud ushbu maqolasida buxorolik taraqqiyparvar Muso Saidjonovning shaxsiy kutubxonasidan Alisher Navoiyning forscha "Devoni Fanoiy"sini topgani e'lon qilgan.

Shu yili Abdurauf Fitrat "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalining 12-sonida "Navoiyning forsiy shoirlig'i ham uning forsiy devoni to'g'risida" maqolasini e'lon qilgan va unda mutafakkirning fors tilidagi ijodi haqida ma'lumot bergan. Abdurauf Fitrat Alisher Navoiy haqidagi ma'lumotlarni taqdim qilishda mutafakkirning asarlariga tayangan.

Abdurauf Fitrat Alisher Navoiyni "adabiyotimizning bobosi", deb ataydi. Uning fors tilidagi iqtidorini kengroq tadqiq qilish adabiyot tarixi uchun muhim deb hisoblaydi. Navoiyning forsiy devoni xususiy va umumiy kutubxonalarda, Yevropa kutubxonalarida yo'qligini ta'kidlaydi. Faqatgina Vadud Mahmudning sa'y-harakati bilan Alisher Navoiyning forsiy devoni topilganligini e'tirof etadi.

1929 yili Abdurauf Fitrat "Chig'atoy adabiyoti" maqolasida Navoiy ijodiga yana bir bor murojaat qilgan. Maqolada turkiy tilimiz va adabiyotimiz mo'g'ullar va temuriylar davrida "chig'atoy tili" va "chig'atoy adabiyoti" deb atalganiga shubha bildiradi. Faqat professorlar Vamberi va Ubaydullinning "O'rta Osiyo eli ham tili o'rtaosiyolilar tomonidan Chig'atoy ataladi. Bu ism ularga eronlilar tomonidan berildi", degan fikriga tayanib, shunday atash mumkin, deydi. Mo'g'ullar davrida "chig'atoy tili", "chig'atoy adabiyoti" jumlalarini biror manbada uchratmagani, ammo temuriylar davridan turkiy til va adabiyot chig'atoycha atalganligini Alisher Navoiy, Lutfiy, Majlisiy, Muhammad Solih ijodida qayd qilib o'tilganligini misollar orqali ko'rsatadi.

Jadidlar tarixiy maqolalarida ko'p marta "Boburnoma"ga tayanganlar, ammo uning shaxsi, faoliyati haqidagi tadqiqotlar olib borganlarmi, yo'qmi, hozircha menda ma'lumot yo'q.

- Jadidlarning milliy mumtoz adabiyotimizni o'rganish jarayonidagi ma'lumotlar ta'lim, maktab-maorif, ilm-fan, san'at yo'nalishlarida qay yo'sinda qo'llanilgan?

- Jadidlarda milliy g'urur, milliy o'zlik tushunchasi yuqori darajada bo'lib, milliy tarix, milliy til, milliy adabiyotga chuqur ehtirom bilan qaraganlar. Maktablarning rushdiya bosqichidagi adabiyot darslarida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiylaridan, g'azallaridan, devonlaridan foydalanganlar. Temuriylar davri tarixiga oid maqola va risolalarida "Boburnoma"dan iqtiboslar keltirgan. Zahiriddin Muhammad Boburning xotiralariga ishonchli manba sifatida qaraganlar. Ikki mutafakkirning ilm-fan, san'at, tarix va adabiyot oldidagi xizmatlarini munosib baholash, yubiley sanalarini keng nishonlash bo'yicha o'z takliflarini berganlar.

- Samimiy va qiziqarli suhbat uchun tashakkur!

Nazokat USMONOVA suhbatlashdi.



UNIVERSITETNING YANGI O'QUV BINOSI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Andijon davlat universitetining yangi o'quv binosi ochilishiga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Bugungi kunda oliygohda 8 mingga yaqin o'qil-qizlar tahsil oladi.

Tadbirda viloyat hokimi Shuhratbek Abdurahmonov, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Kongratbay Sharipov, oliy ta'lim muassasalari, idora-tashkilotlar mas'ullari, institut professor-o'qituvchilari hamda mehnat jamoasi, keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.



Ramziy lenta qirqilgach, yig'ilganlar bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. Davlatimiz rahbarining bevosita e'tibori natijasida universitet uchun yangi o'quv binosi qurilishiga davlat byudjetidan 45 milliard so'm mablag' ajratildi.

1800 o'ringa mo'ljallangan 6 qavatli binoda talabalarning puxta bilim olib, yetuk malakali mutaxassis bo'lib yetishishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan bo'lib, o'quv, ma'muriy binolar, oshxona, hamda zamonaviy laboratoriya xonalari barpo etilgan.

Tadbirdan so'ng viloyat hokimi Andijon davlat universitetida talaba-yoshlar bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda oliy ta'lim tizimini yanada isloh qilish bilan bog'liq o'nlab taklif va mulohazalar bildirildi. O'qishni tamomlayotgan talaba diplom bilan birga sertifikatlarga ham ega bo'lishi kerakligi ta'kidlandi.

- Andijonlik yoshlar ko'plab sohalarda ulkan yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Bularning barchasi Prezidentimiz tomonidan mamlakatimiz taqdirini, xalqimizning ertangi kunini belgilab beradigan yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik va e'tibor samarasidir, - deya ta'kidladi viloyat rahbari.



Uchrashuvda yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish, bandligini ta'minlash hamda muammolarini bartaraf etish masalasida fikr almashildi. Yoshlar turli masalalar yuzasidan viloyat hokimiga o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qildi.

Har bir savol, masalaga aniq va atroflicha javob berilishi bilan birga, yoshlarni qiynayotgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilandi.

Shuningdek, rahbarlar universitet oshxonasida tushlik qilayotgan talabalar davrasiga qo'shilib, ular bilan suhbatlashdilar.

M.MAMATQULOV,
"Adolat mezoni" muxbiri.

HISOBOT SAYLOV YIG‘ILISHI BO‘LIB O‘TDI



Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Asaka tuman bo'linmasi kengashida tasarrufidagi 26-umumiy o'rta ta'lim maktabida 2025-yil 15-fevral kuni hisobot-saylov yig'ilishi bo'lib o'tdi.

O'tkazilgan yig'ilishda maktab boshlang'ich tashkilot raisi A.Ergashevning kasaba uyushmada 2020-2025-yillar davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'ruzasi eshitildi.

Shundan so'ng ma'ruza bo'yicha muzokara bo'lib o'tdi. Muzokaraga maktab direktori N.Mo'ydinov va boshqalar so'zga chiqdi.

Kun tartibidagi masalalarda boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi raisi, o'rinbosari hamda dublyorgiga, kasaba uyushma tarkibiga a'zolar saylashini ta'kidlab o'tib, nomzodlarlikka takliflar kiritildi.

Maktab jamoasi tomonidan nomzodlar bir ovozdan tasdiqlandi. Boshlang'ich kasaba uyushma tashkiloti raisligiga A.Ergashev qayta saylandi. Nomzodlari taklif etilgan qo'mita a'zolari tarkibi tasdiqlandi.

Muzokaraga so'zga chiqqan kasaba uyushma faollari tomonidan nomzodlar bir ovozdan ma'qullandi.

Shu bilan bir qatorda 2023-2025-yillarga mo'ljallangan jamoa shartnomasining 2024-yilda bajarilishi bo'yicha ham yig'ilish bo'lib o'tdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Asaka tuman bo'linmasi kengashi tasarrufidagi boshlang'ich tashkilotlarda 2023-2025-yillar uchun mo'ljallab tuzilgan jamoa shartnomasining 2024-yil ijrosi, yil davomida jamoa shartnomasi asosida olib borilgan ishlar sarhisob qilindi.

Yig'ilishlarda boshlang'ich kasaba uyushmasi raislari hamda muassasa rahbarlarining ma'ruzalari tinglanib, ular o'z ma'ruzalari orqali 2024-yilda maktabda tuman kengashi bilan hamkorlikda tizimdagi rahbarlar hamda kasaba uyushmasi qo'mitasi raislari uchun reja asosida mehnat qonunchiligini buzilishlarini oldini olish va mehnat munosabatlarini tartibga solish masalalarida hamkorligi ta'minlanganligi, jamoa shartnomalari orqali yil dasturiga kiritilgan tadbirlarning bajarilishi bo'yicha va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ijtimoiy sheriklik orqali fuqarolarni ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish borasida ko'maklar berildi. Bundan tashqari maktab bilan ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Asaka tuman bo'linmasi kengashi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni muhokama qilish uchun kasaba uyushmasi faollari va ish beruvchi vakillari bilan davra suhbatlari, jamoatchilik eshituvlarini tashkil qilinib o'tkazilib borilganligini ta'kidlab o'tdilar.

Bundan tashqari Tuman bo'linmasi kengashi bilan hamkorlikda jamoa shartnomalari bandlariga xodimlarning kasbiy, ijtimoiy-iqtisodiy, xuquqiy va intellektual manfaatlarini himoya qilishning eng dolzarb masalalarning kiritib hamda bajarilishini nazorat qilib kelinishi, hamda har yili turli ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlarni hamkorlikda munosib o'tkazib kelinishi haqida ham gapirib o'tdilar.

Yig'ilish davomida kasaba uyushmasi faoliyatini yanada rivojlantirish yuzasidan kelgusida tuman kengashi bilan hamkorlik ishlarini yanada jonlantirib borish kelishib olindi.

SH.ABDURAXMONOV,
Asaka tuman bo'linmasi kengashi raisi.:



Ijtimoiy himoya

KAMBAG‘ALLIK FAQAT PUL TARQATISH BILAN HAL BO‘LMAYDI

Davlatimiz rahbarining "Kambag‘allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qarori ijrosini ta'minlash doirasida Andijon viloyatidagi mavjud tashkilotlarning 1393 nafar rahbar va o‘rinbosarlarining har biriga 5 nafardan eng og‘ir ahvoldagi 6965 ta kambag‘al oilalar biriktirilgan. Ular tomonidan 2024-yilda 50 ming 375 nafar, 2025-yilda 99 ming 135 nafar oilalarni kambag‘allikdan chiqarish chorasini ko‘rish belgilangan. Xo‘sh, natija qanday bo‘lmoqda?

- Oltinko‘l tumanidagi "Tortiq" MFYda istiqomat qiluvchi 5 ta oilada o‘rganish ishlarini olib bordik, - deydi "Andijon suv ta'minoti" AJ direktori Dilshodbek Qo‘ldoshev. - Ularning sharoitidan kelib chiqqan holda moddiy yordam ko‘rsatildi. Oila a'zolarini ishga joylashtirish masalasi ko‘rib chiqildi. Hozirda ular doimiy ish joyiga ega. Kambag‘allik safidan chiqarildi.

Viloyatda kambag‘allik darajasi joriy yil yakuniga qadar 11,9 foizdan 8,7 foizga tushirilishi ko‘zda tutilgan. Buning uchun tanlab olingan mahallalarda eng avvalo, hudud infratuzilmasini yaxshilashga e'tibor qaratilyapti. Oddiy misol, qishloq sharoitida tomorqadan bir yilda qo‘shimcha 10-15 mln. so‘mgacha daromad olish mumkin. Biroq, suv yetib bormagan hovlida bu yutuqqa erishish mushkul. Shu bois, maqsadga yo‘naltirilgan sa'y-harakatlar doirasida aholini qiynab kelayotgan barcha muammolarga yechim izlanyapti. Avvallari aksariyat mahallalarda tomorqani sug‘orish asosiy mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Sababi, ko‘chaning oxiridagi manzillarga suv yetib bormasligi tufayli tomorqadan foydalanish imkoni bo‘lmagan. Hozirda ichki ariqlarni betonlash natijasida muammoga yechim topildi. Bu orqali 1 soniyada 200 litr suvni tejash imkoni yaratilib, behuda sarflanayotgan 60 foiz suv tomorqaga yo‘naltirilmoqda. Amalga oshirilayotgan ishlar tufayli suvdan foydalanish darajasi 90 foizga yetkazilmoqda. Shu orqali har bir tumanda o‘rtacha 4 mln. metr kub suvni tejash va aholi daromadiga yo‘naltirish imkoniyati yaratilmoqda.

Tan olish kerak, aksariyat oilalarda daromad topish uchun sharoit ham, biznes reja ham bor. Biroq, mablag‘ yo‘q. Har qanday iqtisodiy natija uchun dastlab sarmoya kerak. Bu aholini kambag‘allikdan chiqarishdagi asosiy jarayon hisoblanadi. Qo‘rg‘ontepa tumanidagi "Sohibqiron" mahallasida istiqomat qiluvchi Botirjon Mo‘minov ham tomorqasidagi bo‘sh turgan 1 sotix maydondan daromad olish maqsadida mahalla faollaridan yordam so‘radi. Ajratilgan 33 mln. so‘m kredit mablag‘i nafaqat, issiqxona barpo etishga, balki, yordamchi xo‘jalik tashkil etishga ham yetdi. Chorvachilikning o‘zidan 10 mln. so‘m daromad olganligi amalga oshirilayotgan ishlarning samarali ifodasidir. Bunday xayrli ishlar ortidan mahalla kambag‘allik va ishsizlikdan holi hududga aylandi.

- Hamma ham biznes reja ishlab chiqishi, bankdan kredit mablag‘iga ega bo‘lishi mumkin. Biroq, imkoniyatdan foydalanishning o‘zi bo‘lmaydi, - deydi Oltinko‘l tumanidagi "Ijtimoyat" MFYda istiqomat qiluvchi Yulduzoy Abdurasulova. - Men ham avval ishsiz edim. Mahalla faollarining sa'y-harakatlari bilan tadbirkorlik asosida nafaqat, o‘zimni balki, o‘zgalarni ham doimiy daromad manbaiga ega qilishim mumkinligi borasidagi ko‘nikmaga ega bo‘ldim. Qolaversa, Uychi va Sayxunobod tajribasini qunt bilan o‘rgandim. Natijada mahallamiz ehtiyojidan kelib chiqib, "Yangi asr farzandi" oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatini yo‘lga qo‘ydim. Bu orqali 4 ta yangi ish o‘rni yaratilib, 50 nafar o‘g‘il-qizlarga sifatli ta'lim-tarbiya berish sharoitiga ega bo‘ldik.

Saminjon HUSANOV,
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi.



AHOLIGA SIFATLI TIBBIY XIZMATLAR KO‘RSATILMOQDA

Keyingi yillarda respublikamiz sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, tibbiyot yo‘nalishiga zamonaviy, yuqori texnologik uskunalarning jalb etilishi eng murakkab jarrohlik amaliyotlarini ham hududlarning o‘zida amalga oshirish imkonini bermoqda.

Ayni paytda respublika darajasida amalga oshiriladigan 14 turdagi yuqori texnologik operatsiyalar viloyat markazida, viloyat darajasidagi 5 turdagi jarrohlik amaliyotlari bevosita tuman va shaharlar shifoxonalarida bajarilishi yo‘lga qo‘yildi. Sohada sifatli natijalarga erishish uchun eng avvalo, tibbiy muassasalar zamon talablariga javob berishi kerak. Shuning uchun o‘tgan yilda 9 ta yirik muassasalarda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Masalan, Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida 34 mlrd. so‘mlik loyiha ishlari bajarildi. 7 ta maskanda "Tashabbusli byudjet" dasturiga asosan 10,5 mlrd. so‘mlik qayta qurish ishlari olib borildi. Tibbiyot muassasalari uchun 1500 dona 59 turdagi yuqori texnologik tibbiy asbob-uskunalar sotib olindi. Bu bemorlarga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bir qatorda yashirin kasalliklarni vaqtli aniqlash imkonini ham berdi. Xususan, respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Andijon filialida davolash-muolaja ishlari tubdan ijobiy tomonga o‘zgardi.



- O‘n to‘rt yildan buyon qandli diabet kasalligi bilan og‘riyman, - deydi Andijon shahrida yashovchi Mehriniso Haydarova. - Har olti oyda tibbiy ko‘rikdan o‘tib, muolaja olib turaman. Ilgari viloyatda sharoit bo‘lmaganiga davolanish uchun poytaxtga borishimga to‘g‘ri kelardi. Hozir viloyat shifo maskanlari eng zamonaviy tibbiy uskunalar bilan ta'minlangani uchun shu yerning o‘zida har qanday muolaja olish imkoni vujudga keldi.

Aytish kerakki, 2024-yilda viloyatdagi mavjud aholining 96,9 foizi xatlovdan o‘tkazildi. 40 yoshdan oshgan aholi orasida yurak-qon tomir kasalliklari va endokrinologik kasalliklarni erta aniqlash maqsadida 977 ming 635 nafar aholi skriningdan o‘tkazildi. Viloyatda ona va bola salomatligini asrash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ham ibratlidir. O‘tgan yili tug‘ruqqa ko‘maklashuvchi muassasalarda tibbiy xizmat sifatini oshirish maqsadida respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Andijon viloyat hududiy filialiga 30 ta, Shahrixon tumanlararo perinatal markaziga 30 ta, Baliqchi tumani tug‘ruq kompleksiga 15 ta qo‘shimcha o‘rinlar tashkil etildi. Qo‘rg‘ontepa, Paxtaobod va Shahrixon tumanlarida perinatal markazlarining tashkil etilishi natijasida chekka hududlardagi tug‘ish yoshidagi ayollarga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish yangi bosqichga olib chiqildi. "Ona va bola salomatlik markazi"ning viloyatdagi filiali xalqaro "Xavfsiz onalik" sertifikatiga ega bo‘ldi.

Viloyat bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi respublikadagi nufuzli shifoxonalardan biriga aylandi. Bu yerda bir yilda o‘rtacha 350 ta yuqori texnologik operatsiyalar amalga oshirilmoqda.

- Farzandim tug‘ilganida yuragida muammosi bor edi, - deydi qo‘rg‘ontepalik Sarvinoz Sotiboldiyeva. - Shuning uchun viloyat bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markaziga yo‘llanma berishdi. Bu yerda tajribali shifokorlar tomonidan murakkab jarrohlik amaliyoti o‘tkazildi. Hozir farzandim sog‘lom ulg‘aymoqda.

Sog‘liqni saqlash



Viloyatdagi mavjud tibbiyot muassasalarida faqat mahalliy aholi emas, qo‘shni davlatlardan kelgan bemorlar ham shifo topayotgani diqqatga sazovor. Ushbu shifo maskanlarida 4 ming nafarga yaqin chet el fuqarolari davolanib, sog‘lom hayotga qaytdi.

- Andijon viloyatida aqli zaif bolalarga ko‘maklashuvchi tibbiy muassasa borligini eshitib, 15 yoshli o‘g‘limni shu yerga olib keldim, - deydi qozog‘istonlik Sayram Adisheva. - Farzandimni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishdi. Keyin mustaqil harakatlana olishini ta'minlab berishlari mumkinligini aytishdi. 15 kunda o‘g‘lim o‘zi ovqatlanadigan, buyumlarini ajratadigan, atrofidagilarni taniydigan bo‘ldi. Bu men uchun juda katta baxt. Shundan buyon har yili kelib muolaja olyapmiz. Bu O‘zbekistonda tibbiyot sohasi naqadar tez va qisqa muddatlarda ijobiy tomonga o‘zgarganini ko‘rsatadi.

Bu borada olib borilayotgan islohotlar mamlakatimizda inson omiliga bo‘lgan e'tiborning yuksak ifodasi sifatida e'tirof etilmoqda.

S. HUSANZODA,
jurnalist.

«NOTARIUS MASLAHATI» SAHIFASI

ER–XOTINNING UMUMIY MOL–MULKDAGI ULUSHGA BO'LGAN MULK HUQUQI TO'G'RISIDAGI GUVOHNOMALAR BERISH TARTIBIDAN XABARDORMISIZ?

Er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g'risida guvohnomalar berish tartibi quyidagicha tartibda amalga oshiriladi: Notarius er-xotinning yozma arizasiga muvofiq ulardan biriga yoki har ikkisiga nikoh davomida orttirilgan umumiy mol-mulkdagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g'risida guvohnoma beradi. Ushbu guvohnoma er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g'risida ularning mavjud umumiy mulki hisoblangan mulkigagina beriladi. Notarius tomonidan er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g'risida guvohnomani berish paytida nikoh tuzilganligini hamda mulk huquqini tasdiqlovchi hujjat talab qilinadi.

Er va xotinning xohishi bilan ularning umumiy mol-mulkni bo‘lish to‘g'risidagi o‘zaro kelishuvi notarial tartibda tasdiqlanadi. Nizo tug'ilgan hollarda er va xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lish, shuningdek, er va xotinning bu mol-mulkdagi ulushini aniqlash sud tartibida amalga oshiriladi.

Oilaviy munosabatlar tugatilganda sud er va xotin alohida yashagan davrda orttirgan mol-mulkni ulardan har birining shaxsiy mulki deb topishi mumkin. Voyaga yetmagan bolalar ehtiyojini qondirish uchun olingan buyumlar bo‘linmaydi hamda bolalar er va xotindan qaysi biri bilan yashasa, unga kompensatsiyasiz beriladi.

O‘zbekiston Respublikasining Notariat to‘g'risida qonunining 63-moddasiga ko‘ra, marhum erdan (xotindan) keyin xotinning (erning) arizasiga ko‘ra umumiy mol-mulkdagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g'risida guvohnoma berish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi. Er yoki xotindan biri vafot etgan taqdirda er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g'risidagi guvohnoma marhum erdan (xotindan) keyin xotinning (erning) yozma arizasiga ko‘ra meros ochilgan joydagi notarius tomonidan beriladi va merosni qabul qilib olgan merosxo‘rlar bu xususida xabardor qilinadi. Xabarnoma pochta orqali yuboriladi. Merosxo‘rlar notarial idoraga kelganlarida esa notarius ularni o‘z hissasini talab qilayotgan er yoki xotinning yozma arizasi bilan tanishtiradi.

Er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g'risidagi guvohnoma marhum erdan (xotindan) keyin xotinga (erga) nikoh davomida orttirilgan umumiy mol-mulkning yarmisi uchun berilishi mumkin. Merosni qabul qilib olgan merosxo‘rlarning yozma arizasiga ko‘ra va marhum erdan (xotindan) keyin xotinning (erning) roziligi bilan mulk huquqi to‘g'risidagi guvohnomada vafot etgan erning (xotinning) ham umumiy mol-mulkdagi ulushi belgilanishi mumkin.

Er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g'risidagi guvohnoma matnida mol-mulkning to‘liq tavsifi ko‘rsatiladi.

Er va xotinning umumiy mol-mulki hisobidan o‘rtadagi voyaga yetmagan bolalar nomiga qo‘yilgan omonatlar o‘sha bolalarga tegishli hisoblanib, er-xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lish paytida e'tiborga olinmaydi. Er va xotinning umumiy mol-mulki ular nikohda turgan davrda bo‘lingan taqdirda, er va xotin mol-mulkining bo‘linmay qolgan qismi, shuningdek, er va xotin tomonidan ular nikohda turgan davrda orttirilgan mol-mulk keyinchalik ularning birgalikdagi umumiy mulkini tashkil qiladi.

Nikohdan ajralgan er va xotinning umumiy mol-mulkni bo‘lish to‘g'risidagi talablariga nisbatan uch yillik da'vo muddati qo‘llaniladi. Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lishda hamda ularning shu mol-mulkdagi ulushlarini aniqlashda, agar er va xotin o‘rtasidagi nikoh shartnomasida boshqacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, er va xotinning ulushlari teng deb hisoblanadi.

Dildora KADIROVA,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius.

IJARA SHARTNOMALARINI NOTARIAL RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

Mulk ijarasi shartnomasini tasdiqlashda notarius quyidagilarni talab qiladi:

mulkka bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat (nusxasi qoldirilib, asli qaytarib beriladi);

ijara narsasi umumiy birgalikdagi mulk bo'lgan taqdirda (er-xotinning birgalikdagi mulki), barcha egalarining (er-xotinning) roziligi;

xususiylashtirilgan uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismi bo'lganda, O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy organlaridan olingan uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismini xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to'g'risida ma'lumotnoma.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining tegishli moddasiga asosan ijaraga berilayotgan mol-mulk topshirish va qabul qilish dalolatnomasi asosida topshirilishi lozimligi taraflarga tushuntiriladi va bu haqda shartnoma matnida ko'rsatiladi.

Mazkur bandning to'rtinchi xatboshisida nazarda tutilgan ma'lumotnoma notarius tomonidan idoralararo elektron hamkorlik yo'li bilan olinadi va tizimda saqlanadi.

Elektron tizimlarda texnik nosozliklar bo'lganda, axborot almashuvi kurerlik xizmati orqali amalga oshiriladi.

Ko'chmas mulk ijara shartnomasini notarial tartibda tasdiqlashda notarius quyidagilarni talab qiladi:

mulkka bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat (nusxasi qoldirilib, asli qaytarib beriladi);

ijaraga berilayotgan turar joyda doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan shaxslar haqida ichki ishlar organi tomonidan berilgan ma'lumotnoma yoki uy daftaridan ko'chirma;

mulkdorning ijaraga berilayotgan turar joyda doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan voyaga yetgan oila a'zolarining (eri (xotini) va ularning farzandlari) roziligi.

Agar:

ko'chmas mulk umumiy birgalikdagi mulk bo'lgan taqdirda (er-xotinning birgalikdagi mulki), barcha egalarining (er-xotinning) roziligi;

xususiylashtirilgan turar joy ijaraga berilganda, O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy organlari tomonidan berilgan xususiylashtirishda rozilik bergan shaxslar haqidagi ma'lumotnoma (nusxasi olinib, asli qaytariladi) va ularning roziligi;

ko'chmas mulk garovga qo'yilgan bo'lsa, garovga oluvchining roziligi ham talab etiladi.

Korxonani ijaraga berish shartnomasini tasdiqlashda qo'shimcha ravishda kreditorlarga berilgan xabarnoma talab etiladi.

Xususiylashtirishda rozilik bergan shaxslar haqidagi ma'lumotnoma notarius tomonidan idoralararo elektron hamkorlik yo'li bilan olinadi va tizimda saqlanadi.

Elektron tizimlarda texnik nosozliklar bo'lganda, axborot almashuvi kurerlik xizmati orqali amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulkni ijaraga berish shartnomalarini notarial tasdiqlashda, qo'shimcha ravishda yuridik shaxs vakolatli organlarining ko'chmas mulkni ijaraga berish (olish) haqidagi hujjat (qaror, umumiy majlis bayonnomasi, kuzatuv kengashining qarori, buyruq va hokazo) talab etiladi.

Muxammadbobur TO'YCHIBOYEV,
Paxtaobod tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius.

VORISLIK HUQUQI HAQIDA NIMALARNI BILISH LOZIM?

Vorislik huquqi fuqarolarning xususiy mulk huquqi bilan chambarchas bog'liqdir.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqliligi, bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga ko'ra, vafot etgan fuqaroning mol-mulki yoki mulkka bo'lgan huquq va majburiyatlari faqat ikki holatda qonun bo'yicha vorislariga o'tadi. Birinchidan, fuqaro mulkining o'zi vafot etgandan keyingi taqdirini oldindan belgilagan, ya'ni vasiyatnoma qoldirgan hollarda vasiyatnoma asosida uning mol-mulki yoki mulkka bo'lgan huquq va majburiyatlari qonun bo'yicha vorislariga o'tishini ko'zda tutsa, ikkinchidan, vafot etgan fuqaro vasiyatnoma qoldirmagan taqdirda qonun bo'yicha vorislik asosida.

Vorislik vasiyat va qonun bo'yicha amalga oshiriladi. Qonun bo'yicha vorislik vasiyat mavjud bo'lmasa yoxud butun merosning taqdirini belgilamasa amalga oshiriladi. Meros ochilgan paytda meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan, uning o'limidan keyin ham bekor bo'lmaydigan barcha huquq va majburiyatlar meros tarkibiga kiradi.

Mulk egasi mulkining o'zi vafot etganidan keyingi taqdirini oldindan, ya'ni o'zi hali hayotligida belgilashi mumkin. Bu tegishli tartibda tasdiqlangan vasiyatnoma orqali amalga oshiriladi.

Ta'kidlash kerakki, vasiyat bo'yicha merosxo'r bo'lishi man qilingan shaxslar ro'yxati qonunda belgilab qo'yilmagan. Ammo amaldagi qonunlarimizda ma'lum bir cheklovlar o'rnatilgan. Xususan, Fuqarolik kodeksining tegishli moddasida nazarda tutilgan asoslarda voris, shu jumladan, vasiyat bo'yicha voris etib tayinlangan shaxs ham sudning hal qiluv qarori bilan noloyiq merosxo'r deb topilib, meros olishdan chetlashtirilishi mumkin. Vasiyat qiluvchi o'z hayotiga suiqasd qilinganidan keyin vasiyatnoma bergan shaxslar bundan mustasno.

Meros qoldiruvchi o'zining oxirgi xohish-irodasini amalga oshirishga qasddan to'sqinlik qilgan va shu orqali o'zlarining yoki o'zlariga yaqin shaxslarning voris bo'lishiga yoxud merosning o'zlariga yoki o'zlariga yaqin shaxslarga tegishli ulushi ko'paytirilishiga imkon yaratgan shaxslar vasiyatnoma bo'yicha ham, qonun bo'yicha ham meros olish huquqiga ega emaslar.

Demak, qonun bo'yicha merosxo'rlar doirasiga asosan meros qoldiruvchi bilan qarindoshlik munosabatlarida bo'lgan va meros qoldiruvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslar kirsa, vasiyat bo'yicha merosxo'rlarni tayinlash meros qoldiruvchining mutlaq huquqi hisoblanadi va faqatgina uning xohish-irodasi bilan erkin tanlanadi.

Amaldagi Fuqarolik kodeksida vasiyat bo'yicha vorislikning umumiy qoidalari belgilangan bo'lib, unga ko'ra, fuqaroning o'ziga tegishli mol-mulkni yoki bu mol-mulkka nisbatan huquqini vafot etgan taqdirda tasarruf etish xususidagi xohish-irodasi vasiyat deb e'tirof qilinadi. Vasiyatnoma shaxsan tuzilishi lozim. Vasiyatnomaning vakil orqali tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Fuqaro o'zining barcha mol-mulkini yoki uning muayyan qismini qonun bo'yicha merosxo'rlar doirasiga kiradigan, shuningdek, kirmaydigan bir yoki bir necha shaxsga, shu bilan birga, yuridik shaxslarga, davlatga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga vasiyat qilishi mumkin.

Vasiyat qiluvchi qonun bo'yicha merosxo'rlardan bittasini, bir nechtasini yoki hammasini izoh bermagan holda merosdan mahrum qilishga haqli. Qonun bo'yicha merosxo'rni merosdan mahrum etish, agar vasiyatnomadan boshqa mazmun kelib chiqmasa, bu vasiyat qiluvchining taqdim etish huquqi bo'yicha vorislik qiladigan avlodlariga nisbatan tadbiq etilmaydi.

Meros qoldiruvchi har qanday mol-mulk to'g'risidagi farmoyishni o'z ichiga oladigan vasiyatnoma tuzishga haqli. Meros qoldiruvchi vasiyat qilayotgan paytida o'ziga tegishli bo'lmagan mol-mulk to'g'risidagi farmoyishni o'z ichiga oladigan vasiyatnoma tuzishga haqli. Agar meros ochilgan paytga kelib, bunday mol-mulk unga tegishli bo'lib qolsa, tegishli farmoyish haqiqiy hisoblanadi. Meros qoldiruvchi vasiyatnoma tuzilganidan keyin uni istagan paytda bekor qilish va o'zgartirish borasida erkin bo'lib, bunda bekor qilish yoki o'zgartirish sabablarini ko'rsatishga majbur emas.

Majburiy ulush olish huquqiga ega bo'lgan merosxo'r biron-bir asos bo'yicha merosdan oladigan hamma narsa, shu jumladan, oddiy uy jihozlari va ro'zg'or buyumlaridan iborat mol-mulkning qiymati ham, bunday merosxo'r foydasiga qilingan vasiyat majburiyatining qiymati ham majburiy ulushga qo'shiladi. Merosdan majburiy ulush huquqiga ega bo'lgan merosxo'r uchun vasiyatnomada belgilangan har qanday cheklashlar va shartlar unga tegadigan merosning faqat majburiy ulushdan ortiqcha qismiga nisbatan haqiqiydir.

Bekzod ALIYEV,
Marhamat tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius.

BITIMLAR QANDAY SHAKLLARDA TUZILADI?

Bitimlar deb fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlariga aytiladi.

Bitimlar bir taraflama, ikki taraflama yoki ko'p taraflama (shartnomalar) bo'lishi mumkin.

Bitim tuzish uchun qonun hujjatlariga yoki taraflarning kelishuviga muvofiq bir tarafning xohishi zarur va yetarli bo'lsa, bunday bitim bir taraflama bitim hisoblanadi.

Shartnoma tuzish uchun ikki taraf (ikki taraflama bitim) yoki uch yoxud undan ko'p taraf (ko'p taraflama bitim) kelishib xohish bildirgan bo'lishi kerak.

Bir taraflama bitim uni tuzgan shaxs uchun burchlar keltirib chiqaradi. U boshqa shaxslar uchun qonunda yoki bu shaxslar bilan kelishuvda belgilangan hollardagina burchlar keltirib chiqarishi mumkin.

Bir taraflama bitimlarga nisbatan, basharti qonun hujjatlariga, bitimning tabiati va mohiyatiga zid bo'lmasa, majburiyatlar va shartnomalar to'g'risidagi umumiy qoidalar tegishincha qo'llaniladi.

Agar taraflar huquq va burchlarining kelib chiqishi yuz berishi yoki bermasligi noma'lum bo'lgan holatga bog'liq qilib qo'ysalar, bitim kechiktirish sharti bilan tuzilgan hisoblanadi.

Agar taraflar huquq va burchlarning bekor bo'lishini yuz berishi yoki bermasligi noma'lum holatga bog'liq qilib qo'ysalar, bunday bitim bekor bo'lish sharti bilan tuzilgan bitim hisoblanadi.

Notariuslar qonunchilikka binoan notarial shaklda tasdiqlanishi majburiy qilib qo'yilgan bitimlarni tasdiqlaydi. Tomonlarning xohishiga ko'ra notarius boshqa bitimlarni ham tasdiqlashi mumkin.

Ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazish va garovga qo'yish to'g'risidagi bitimlar boshqa shaxsga o'tkazilayotgan yoki garovga qo'yilayotgan mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgan taqdirdagina tasdiqlanishi mumkin. Bunda mol-mulkning boshqa shaxsga o'tkazuvchiga yoki garovga qo'yuvchiga tegishliligi hamda boshqa shaxsga o'tkazish taqiqlanmaganligi va xatlanmaganligi tekshiriladi. Taqiq mavjud bo'lgan hollarda ko'rsatilgan mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi bitim faqat kreditor bilan oluvchi shaxs qarzni oluvchining hisobiga o'tkazishga rozi bo'lgan taqdirda tasdiqlanishi mumkin.

Bitimlar og'zaki yoki yozma shaklda tuziladi.

Sukut saqlash qonun hujjatlarida yoki taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan hollarda bitim tuzishga bo'lgan xohish-irodaning ifodasi hisoblanadi.

Bitimni notarial tasdiqlash qonun talabiga mos keladigan hujjatda notarius yoki bunday notarial harakatni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan boshqa mansabdor shaxs tomonidan tasdiqlovchi ustxat yozib qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Quyidagi hollarda bitimlar notarial tasdiqlanadi.

1) qonunda ko'rsatilgan hollarda;

2) taraflardan birining talabi bo'yicha.

Bitimlarning qonunda ko'rsatilgan shakliga rioya qilmaslik, ya'ni qonunda bitim notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart qilib qo'yilgan hollarda bitimning notarial shakliga yoki uni davlat ro'yxatidan o'tkazish talablariga rioya qilmaslik bitimning haqiqiy emasligini keltirib chiqaradi. Bunday bitim o'z o'zidan haqiqiy bo'lmaydi.

Xusniddin RAXMONOV,
Paxtaobod tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius.

«PROAKTIV» PENSIYA QANDAY TAYINLANADI?

Ma’lumki, 2025-yil 1-martdan boshlab pensiya yoshiga yetgan fuqarolarga pensiyalar ”avtomatik” tarzda, ya’ni hech qanday hujjat talab etmagan holda va fuqaroning murojaatisiz tayinlanadi.

Fuqaroning shaxsiga oid barcha ma’lumotlar vazirlik va idoralarning elektron bazalaridan olinadi.

Buning natijasida:

Birinchidan, fuqarolardan pensiya tayinlash uchun Pensiya jamg’armasining hududiy bo’linmasiga murojaat qilish talab etilmaydi.

Ikkinchidan, pensiya yoshiga yetgan fuqaroga qonunchilikda belgilangan talablar doirasida pensiya tayinlash haqida qaror qabul qilinganida uning telefon raqamiga ”pensiya tayinlanganligi va uning miqdori” to’g’risida ”SMS” yuboriladi.

Shuningdek, pensiyaga chiqmasdan ish faoliyatini davom ettirish istagida bo’lgan yoki pensiya miqdoridan norozi bo’lgan fuqarolarga ”avtomatik” tayinlangan pensiyani rad etish huquqi berilmoqda.

Fuqarolar pensiya tayinlanganidan, pensiya miqdoridan yoki pensiya tayinlanishi rad etilganidan norozi bo’lgan taqdirda Pensiya jamg’armasining tuman (shahar) bo’limiga tegishli tartibda ariza bilan murojaat qilishlari mumkin.

Sherzodbek TO’RAQULOV,
Byudjetdan tashqari pensiya jamg’armasi
Shahrixon tumani bo’limi boshlig’i.

SARHISOB: IJTIMOIY XAVFI KATTA BO'LMAGAN JINOYATLAR SONI KAMAYGAN

O’zbekiston Respublikasi ”Sudlar to’g’risida”gi Qonunining 41-moddasida fuqarolik ishlari bo’yicha tumanlararo, tuman, shahar sudi, jinoyat ishlari bo’yicha tuman, shahar sudi, tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudi raislari jamoatchilikni har chorakda sudning faoliyati to’g’risida ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilib borishi belgilangan. Qonunning mazkur talabidan kelib chiqib, jinoyat ishlari bo’yicha Shahrixon tumani sudining 2024-yil davomida odil sudlovni amalga oshirish bilan bog’liq faoliyati xususida to’xtalsak.

So’z borayotgan davrda tuman sudi tomonidan 498 nafar shaxsga nisbatan 373 ta jinoyat ishi ko’rib hal qilingan. Shundan 422 nafar shaxsga nisbatan 308 ta jinoyat ishi bo’yicha hukm chiqarilgan bo’lsa, 72 nafar shaxsga nisbatan 61 jinoyat ishi tugatilgan. Shuningdek, 2 nafar shaxsga nisbatan 2 ta jinoyat ishi bo’yicha tibbiy yo’sindagi majburlov chorasi qo’llanilgan.

Hisobot davridagi faoliyatga oid raqamlar 2023-yilga nisbatan solishtirganda, ijtimoiy xavfi katta bo’lmagan jinoyatlar kamayganligi, aksincha, uncha og’ir bo’lmagan, og’ir hamda o’ta og’ir jinoyatlar soni ortganligini ko’rish mumkin.

Shu o’rinda jinoyat ishlariga shaxslar toifasi bo’yicha ham to’xtalsak. Tahlillarga ko’ra, ayollar, voyaga yetmaganlar, hamda 60 yoshdan oshgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni ortgan. Yoshlar ishtirokidagi jinoyatlar soni esa kamaygan. Ishlarni ko’rish jarayonida 70 nafar shaxs Jinoyat kodeksi 66[1]-moddasiga asosan, ya’ni yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan. Bundan tashqari, 29 nafar shaxs sud zalidan qamoqqa olingan bo’lsa, 44 nafar shaxs sud zalidan qamoqdan ozod etilgan.

Bundan tashqari, zikr etilayotgan muddatda tuman sudi tomonidan 3 ming 147 nafar shaxsga nisbatan ma’muriy huquqbuzarlikka oid 2 ming 504 ta ish ko’rib chiqilgan. Jumladan, 1 ming 785 ta ish yuzasidan 2 ming 117 nafar shaxsga ma’muriy jazo qo’llanilgan bo’lsa, 719 ta ish bo’yicha 1 ming 30 nafar shaxsga nisbatan yuritilgan ishlar tugatilgan. Ma’muriy jazo qo’llanilgan shaxslarning 1 ming 833 nafariga jarima, 275 nafar shaxsga esa ma’muriy qamoq jazosi tayinlangan.

Bugungi kunda sudlarda ko’rilayotgan ishlarning muayyan qismini tashkilot, muassasa va mahallalarda - jamoatchilik ishtirokida sayyor tartibda ko’rib chiqish amaliyotiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Birgina misol: 2024-yilda ma’muriy huquqbuzarlikka oid ishlarning 1 ming 13 tasi joylarda - sayyor sud majlislarida ko’rilgan. Bundan ko’zlangan maqsad hududlarda huquqbuzarlik va jinoyatlarning kamayishiga erishish, nojo’ya xatti-harakatlarning huquqiy oqibatlarini jonli misollar asosida keng jamoatchilikka, ayniqsa, yoshlarga yetkazishdan iborat.

Zarifjon RAHIMOV,
jinoyat ishlari bo’yicha Shahrixon tumani sudining raisi.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳри, 5 кичик даҳа, 13 уй, 71 квартирада яшаб, 1999 йил 10 февраль куни вафот этган марҳум **АСЛОНОВ ДИЛШОДБЕК МИРЗАЖОНОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши расмийлаштирилаётганлиги муносабати билан марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Машраб кўчаси, 26/24-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Т.Қосимов нотариал идорасига,

Андижон шаҳрида яшаб, 2023 йил 5 июнь куни вафот этган марҳум **AXUNOV MANNOB NUMANOVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши расмийлаштирилаётганлиги муносабати билан марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Миллий тикланиш кўчаси, 27-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Т.Ў.Арзикулов нотариал идорасига,

Андижон туманида яшаб, 2024 йил 26 июнь куни вафот этган марҳум **BAXRAMOV KAMILJON KAXRAMANOVICH,**

Андижон туманида яшаб, 2024 йил 3 август куни вафот этган марҳум **KOMILOV SOLIJON**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон туман, Нўхатак МФЙ, Матбуотчи кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.И.Абдураҳмонов нотариал идорасига,

Андижон туманида яшаб, 2011йил 24 январь куни вафот этган марҳум **АРТЫКОВ ТУРДАЛИ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани, Бахт МФЙ, Олтин водий кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Қ. Ғуломжонов нотариал идорасига,

Хонобод шаҳри, Тейт МФЙ, Корабагиш кўчаси, 1/6-уйда яшаб, 2024 йил 6 июль куни вафот этган марҳум **ATABAYEV JORA XXX,**

Хонобод шаҳри, Кампировот МФЙ, Шодлик кўчаси, 20-уйда яшаб, 2023 йил 11 август куни вафот этган марҳум **ASHUROV MAXAMADJON XXX,**

Хонобод шаҳри, Анҳор МФЙ, Бехбудий кўчаси, 20/1 уйда яшаб, 2023 йил 10 январь куни вафот этган марҳум **ABDUXALILOV NEMATXODJA NARXODJAYEVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманида яшаб, 2002 йил 5 июнь куни вафот этган марҳума **КАМОЛОВА ХАМЗАХОН,**

Жалақудуқ туманида яшаб, 1998 йил 28 ноябрь куни вафот этган марҳум **МИРЗАЕВ МОХАМАДЖОН,**

Жалақудуқ туманида яшаб, 1992 йил 16 июль куни вафот этган марҳум **МАТКУРБАНОВ АБДУРАЗЗАК,**

Жалақудуқ туманида яшаб, 2011 йил 31 декабрь куни вафот этган марҳум **УСМОНОВ АБДУРАХМОН ИСАКОВИЧ,**

Жалақудуқ тумани, Намуна МФЙ, Янги ҳаёт кўчаси, 2 уй, 4 хонадонда яшаб, 2014 йил 12 октябрь куни вафот этган марҳума **KELDIBAYEVA OYDINXON**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Бештерак МФЙ, К.Бехзод кўчаси, 41-уйда яшаб, 1998 йил 6 июль куни вафот этган марҳум **АСРАНОВ МАЛИКЖОН,**

Избоскан тумани, Қораёнтоқ МФЙ, Тўпчинор кўчасидаги уйда яшаб, 2024 йил 28 июнь куни вафот этган марҳум **МИРЗААХМЕДОВ ЛАТИБЖОН МИРЗАХАМДОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчаси, 103 уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Д.С.Хатамова нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Тошлоқ МФЙдаги уйда яшаб, 2024 йил 18 март куни вафот этган марҳум **SOTVOLDIYEV XAYITVOY,**

Марҳамат тумани, Қорабоғич МФЙдаги уйда яшаб, 2004 йил 29 июль куни вафот этган маргум **ТЎРАБОЕВ ИБРОХИМ ТУХТАШЕВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Мустақиллик кўчаси, 114-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.И.Алиев нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Тош йўли МФЙ, Садоқат кўчасидаги уйда яшаб, 2025 йил 6 январь куни вафот этган марҳум **ИРХАНОВ МУКУМЖОН ВАЛИЖОНОВИЧ,**

Марҳамат тумани, Қушчи МФЙ, Шеробод кўчасидаги уйда яшаб, 2024 йил 7 сентябрь куни вафот этган марҳум **БЎТАЕВ МАМИРЖОН АМИРОВИЧ,**

Марҳамат тумани, Шаҳристон МФЙ, Бахористон кўчасидаги уйда яшаб, 2001 йил 30 сентябрь куни вафот этган марҳум **БОЗОРОВ МАДУМАР**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобуршоҳ кўчаси, 38-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Усмонов нотариал идорасига,

Пахтаобод тумани, Маърифат МФЙда яшаб, 2015 йил 17 февраль куни вафот этган марҳум **ЭРГАШЕВ ПАЗИЛЖАН,**

Пахтаобод тумани, Шомат МФЙда яшаб, 2023 йил 22 ноябрь куни вафот этган марҳум **АЗАМАТОВ САЙДИБРОХИМ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Обод диёр кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Ў.Тўйчибоев нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Қозиқўрғон МФЙда яшаб, 2009 йил 11 январда вафот этган марҳум **ГОИПОВ ҚОБИЛЖОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Едгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Назармаҳрам МФЙда яшаб, 2023 йил 30 апрелда вафот этган марҳум **MIRZARAIMOV SHOKIRJON G’OPPOROVICH,**

Шаҳрихон тумани, Қорабўйин МФЙда яшаб, 2024 йил 18 июлда вафот этган марҳум **JO’RAYEV ABDUKAXOR KIYIKOVICH**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Едгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Маматов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Ўзбекистон кўчасида яшаб, 2024 йил 30 апрелда вафот этган марҳум **УМИРЗАҚОВА ОМОНХОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Чинобод кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.Мўйдинов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

ADOLAT MEZONI
MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010 yil, 16 martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahririyat kompyuter bo’limida terilda va sahifalandi. «Andijon nashriyot-matbaa» MChJda orginal maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 21.02.2025 yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 21.02.2025 yil, soat 14.00 Korxona manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma №0000125. 100 nusxada bosildi.

Navbatchi M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li